

**Kashtan daraxtining morfologik tuzulishi**  
**Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi**  
**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**  
**Biologiya(turlari buyicha) 3bosqich**  
[jumayevad34@gmail.com](mailto:jumayevad34@gmail.com)

**Kalit soʻzlar;** yongʻoq meva, manzarali daraxt, nektarli oʻsimlik, gullar, barg, changchisi, kraxmal, vitaminlar, qand, azotli moddalar, shamol orqali chanhlanuvchi, magʻzi, baland boʻyli, daraxt, endospermasiz, urugʻpalla, otalik gullari, onalik gullari, meva.

**Annotatsiya;** Kashtan qoraqayindoshlar oilasiga mansub manzarali daraxt boʻlib, 14 ta turi maʼlum va ulardan hozirgi kunda asosan 4 ta turi ekiladi. Kashtan daraxtining mevasi yongʻoqcha meva boʻlib, sentabrdan noyabrgacha pishadi. Yongʻogʻi magʻzida 58% kraxmal, 19% qand, 9 — 12% azotli moddalar, 3% moy, vitaminlar, limon va olma kislotalari mavjud. Yogʻochida, poʻstlogʻida, barglarida 5—15% tannidlar bor. Gullaridan olingan asal oʻziga xos xushboʻy hidga ega. Poʻstlogʻidan turli boʻyoqlar ishlab chiqariladi Kashtan urugʻidan koʻpaytiriladi, ayrim navlari payvand qilinadi.

**Kashtan (Castanea)** — qoraqayindoshlar oilasiga mansub daraxtsimon oʻsimliklar turkumi, yongʻoq mevali va manzarali daraxt. Shimoliy Amerika, Sharqiy Osiyo, Oʻrta dengiz sohillari, Marokash, Tunis, Kavkaz mintaqalarida tarqalgan. Hozirda 14 ta turi maʼlum. Asosan, 4 ta turi ekiladi. Kashtan 500—1000 baʼzi mintaqalarda 3000 yilgacha yashaydi.

Koʻp yil yashaydigan ekma, magʻzi yeyiladigan, chin kashtan (*castanea sativa*) Qora dengiz boʻylari va Zakavkazyeda, togʻlarning quyi va oʻrta mintaqalarida oʻsadi. Boʻyi 35 m, tanasi diametri 2 m ga boradi. Novdalari qirrali, yashil-qizgʻish rangli, soʻng qizgʻirqish rangga kiradi, barglari spiral shaklda joylashadi, kuzda toʻkilib ketadi. [1] Bandi kalta, barg plastinkasi keng lansetsimon, dagʻal, chetlari yirik tishchali, patsimon tomirli. Yon bargchalari ingichka, choʻzinchoq boʻlib, tez toʻkilib ketadi. Shox-shabballari keng . Bargi oddiy, yirik, uzunligi 15—23 sm. Barg chiqarganidan keyin gullaydi. Gullari yigʻilib, 35 sm uzunlikda boʻlgan boshqoq hosil qiladi. Bu boshqoqda ham otalik, ham onalik yoki faqat otalik gullari rivojlanishi mumkin. Kashtan, odatda, bir uyli oʻsimlik boʻlsa-da, ikki uyli tuplari ham uchraydi, bu paytda birida faqat otalik, ikkinchisidan onalik gullar hosil boʻladi. Kashtanning gullari shamol vositasida va hasharotlar yordamida changlanadi. Onalik gullari 1-3 tadan boʻlib, joylashadi. Ular toʻrt oʻrama ichida yashirin yotadi, gullash paytida esa faqat tumshuqchasi va qisman gulqoʻrgʻoni koʻrinib turadi. Oʻrama ichida 1 tadan 3 tagacha

yong'og (kashtan) bo'ladi. [2] Nektarli o'simlik. Mevasi yong'ogcha yupqa yog'ochlangan, dag'al, jigarrangda, yaltiroq, tub qismida rangli dog'i bor. Yong'og'i sharsimon tuxumsimon bo'lib, yonidan ezik. Urug'i endospermasiz, embrioni oq-sariq rangda, urug' pallasini seret, plastik moddasi juda ko'p. Har birida 1 tadan urug' bo'ladi. Daraxti o'tqazilgach, 5—10-yilda meva beradi. Yorum'sevar, namsevar, issiqlikka talabchan. Mevasi sentabrdan noyabrgacha pishadi. Yong'og'i mag'zida 58% kraxmal, 19% qand, 9 — 12% azotli moddalar, 3% moy, vitaminlar, limon va olma kislotalari mavjud. Yog'ochida, po'stlog'ida, barglarida 5—15% tannidlar bor. Gullaridan olingan asal o'ziga xos xushbo'y hidga ega.[3] Yog'ochi vino bochkalari, faner, mebel ishlab chiqarishda, duradgorlikda, kemasozlikda, qurilishda qo'llaniladi. Po'stlog'idan turli bo'yoqlar ishlab chiqariladi. Kashtanning bir necha navlari mavjud. Ko'proq mayda mevali Lion va Neapolitan navlari tarqalgan. O'zbekistonda uning faqat bitta turi tarqalgan bo'lib, ot kashtani (kashtan konskiy) nomi bilan ma'lum (yong'og'ini yeb bo'lmaydi), manzarali daraxt sifatida ekiladi. Kashtan urug'idan ko'paytiriladi, ayrim navlari payvand qilinadi.

### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati;**

1. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev Dendrologiya Toshkent-2012. 280-281- betlar.
- 2.E.T. Berdiyev, SH.F. Gulamxodjayeva "Manzarali daraxtlarni ko'paytirish" Toshkent 2020. 170-bet.
- 3.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.